

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari


(2021 yil yanvar-oktabr oylari)



2021-yil yanvar-oktabr holatiga kelib tushgan jami 1595 ta murojaatlarning 168 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 32 tasi O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining virtual qabulxonasi orqali, 831 tasi qo'mitaning elektron pochталari orqali, 123 tasi Qo'mita rahbariyati tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullar orqali, 28 tasi shaxsiy qabullar davomida, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillaridan qabul qilingan og'zaki murojaatlar, 10 tasi ishonch telefoni, 403 tasi to'g'ridan – to'g'ri kelib tushgan.



Davlat statistika qo`mitasiga hududlar kesimida kelib tushgan murojaatlar taxlili (2021 yil yanvar-oktabr oylari holatiga)



Davlat statistika qo`mitasiga kelib tushgan jami 1595 ta murojaatlarning asosiy qismi Toshkent shahridan 666 ta murojaatlarni (jamiga nisbatan 41,8 foizi) tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 114 ta (7,1 foiz), Bukhoro viloyatidan 102 ta (6,4 foiz), Surxondaryo viloyatidan 102 ta (6,4 foiz), Qashqadaryo viloyatidan 96 ta (6,0 foiz), Samarqand viloyatidan 84 ta (5,3 foiz), Andijon viloyatidan 72 ta (4,5 foiz), Sirdaryo viloyatidan 63 ta (3,9 foiz), Farg'ona viloyatidan 60 ta (3,8 foiz), Namangan viloyatidan 62 ta (3,9 foiz), Jizzax viloyatidan 47 ta (2,9 foiz), Navoiy viloyatidan 47 ta (2,9 foiz), Xorazm viloyatidan 44 ta (2,8 foiz), Qoraqalpog'iston Respublikasidan 34 ta (2,1 foiz), boshqa davlatlardan 2 ta (0,1 foiz) murojaatlar kelib tushgan.



Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

2021-yil yanvar-oktabr holatiga

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:



425 tasi (jamiga nisbatan 26,6 %) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan



331 tasi (20,8 %) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan



71 tasi (4,5 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan



99 tasi (6,2 %) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish yuzasidan



132 (8,3 %) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan



11 tasi (0,7 %) taklif turidagi murojaatlar



488 tasi (30,6 %) Reyting va baholash masalida Qurilish vazirligiga korxonalar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan




38 tasi (2,4 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlarni tashkil etgan



Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:

2021-yil yanvar-oktabr oylari holatiga

Jami: 1595



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 1595 ta murojaatlarning 1369 tasiga chora ko'rilgan, 198 tasi tushuntirish berilgan, 28 ta murojaatlar ko'rib chiqish jarayonida.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 23,9 % (382 ta) jismoniy shaxslar va 76,1 % (1213 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o'tamiz:



O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagilar orqali murojaat etishingiz mumkin:

Ishonch telefonlari:

(71) 202-81 80

Elektron pochta manzilimiz:

info@stat.uz



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini yanada takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat organlariga murojaat qilishda qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, 2018- yil 1- fevraldan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi axborot tizimining yangi talqini ishga tushirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining axborot tizimi jismoniy va yuridik shaxslarga o'z murojaatlarini Internet tarmog'idan pm.gov.uz manzilidagi veb-sayti orqali davlat organlari rahbarlariga yuborish imkoniyatini beradi.

Siz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi axborot tizimining 2- bo'limidagi Davlat qo'mitalari ro'yxatidan Davlat statistika qo'mitasini tanlab, o'z murojaatingizni yuborishingiz mumkin.

Davlat statistika qo'mitasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi boshlig'i: F. Berdibayev telefon raqam: (71 202 81 77)